

<https://hstryres.uz/journal/index.php/makro>

2024, № 3 (5)

ISSN-3030-3761



ТАРИХИЙ ТАДҚИҚОТЛАР
Илмий журнали

ИСТОРИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ
Научный журнал

HISTORICAL RESEARCHES
Scientific journal

ТОШКЕНТ-2024

ТАРИХИЙ ТАДҚИҚОТЛАР
ИСТОРИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ
HISTORICAL RESEARCHES

Бош муҳаррир:
Главный редактор:
Chief Editor:

Юнусова Хуршида Эркиновна
тарих фанлари доктори, профессор
Ўзбекистон Миллий университети

Бош муҳаррир ўринбосори:
Заместитель главного редактора:
Deputy Chief editor:

Шакиров Ильяс Рахимзянович
т.ф.ф.д., (PhD)
Ўзбекистон Миллий университети

ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ
РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ
EDITORIAL BOARD

Сагдуллаев Анатолий Сагдуллаевич
тарих фанлари доктори, профессор,
Академик
Ўзбекистон Миллий университети
Сулейманов Рустам Хамидович тарих
фанлари доктори, профессор
Ўзбекистон Миллий университети
Муминов Алишер Гаффарович
Сиёсий фанлари доктори, профессор
Ўзбекистон Миллий университети
Зуев Андрей Сергеевич
тарих фанлари доктори, профессор
Новосибирск Давлат университети
Кобзева Ольга Петровна
тарих фанлари доктори, профессор
Ўзбекистон Миллий университети
Холиқулов Ахмад Баймахаматович
тарих фанлари доктори, доцент
Ўзбекистон Миллий университети
Габриэльян Софья Ивановна тарих
фанлари доктори, доцент *Ўзбекистон*
Миллий университети
Убайдуллаева Барно Машрабжоновна
тарих фанлари доктори, доцент
Ўзбекистон Миллий университети
Очилдиев Файзулла Бобокулович
тарих фанлари доктори, доцент
Ўзбекистон Миллий университети
Сиддиков Равшан Бердимуратович
тарих фанлари номзоди, доцент
Ўзбекистон Миллий университети
Нарбеков Абдикамил Вафасевич
тарих фанлари номзоди, доцент
Ўзбекистон Миллий университети

Тухтабеков Козимбек Азимбекович
тарих фанлари номзоди, доцент
Ўзбекистон Миллий университети
Бабабеков Акбар Давурбаевич
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)
Ўзбекистон Миллий университети
Бахранов Шерзод Таштурсунович
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD),
Жамоат ҳафсизлиги университети
Кандахаров Анваржон Хасанович
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент
Ўзбекистон Миллий университети
Холиқулова Шахноза Боймухамматовна
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)
Навоий Давлат педагогика институти
Нормуродов Дилмурод Рахматуллаевич
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент
Ўзбекистон Миллий университети
Алиназарова Дилдора Валишеровна
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)
Ўзбекистон Миллий университети
Тоғаев Жасур Эркинович
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент
Ўзбекистон Миллий университети
Усаров Умид Абдумавлянович
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент
Ўзбекистон Миллий университети
Абдулаева Нигора Санжаровна
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)
Ўзбекистон Давлат Жаҳон тиллари университети
Эгамбердиева Гузаль Акрамжоновна
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)
Ўзбекистон Миллий университети

Контакт редакции журнала
Город Ташкент, улица Мирзо Голиба,
Исторический факультет Национального
Университета Узбекистана имени Мирзо Улугбека
Web: <https://hstryres.uz/journal/> ; E-mail:
I.Shakirov91@mail.ru
Тел: +998900382203

Contact Editors of journal
Tashkent city, street of Mirzo Golib
Faculty of history of the National university of
Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek
Web: <https://hstryres.uz/journal/> ; E-mail:
I.Shakirov91@mail.ru
Phone: +998900382203

МУНДАРИЖА / СОДЕРЖАНИЕ / CONTENT

1. Abdurasulova Faxriya Bahtiyor qizi BUXORO AMIRLIGI IJTIMOYIY-IQTISODIY, SIYOSIY VA MA'NAVIY HAYOTINI O'RGANISHDA MANBASHUNOSLIK TAVSIFI	4
2. Abdullayev Akmaljon Xasanbay o'g'li O'ZBEKISTON TARIXI FANIDA DATA SCIENCENING O'RNI	13
3. Ergashev Husan Yusup o'g'li MUSTAQILLIK YILLARIDA TARIX FANI VA TA'LIMINING RIVOJLANISHIDA O'ZMU TARIX FAKULTETINING O'RNI VA AHAMIYATI	19
4. Кенджаев Якуб Юсупович СОВЕТ ИТТИФОҚИНИНГ ҒАРБИЙ ВИЛОЯТЛАРИДАН КЎЧИРИЛГАН САНОАТ КОРХОНАЛАРИНИНГ ЖОЙЛАШТИРИЛИШИ (1941-1945)	26
5. Kandaxarov Anvar Xasanovich O'RTA ASR DAVLATCHILIGIDA DIN VA TASAVVUF VAKILLARINING TA'SIRI	31
6. Мухамедов Якубджан Кадирович ҒАРБИЙ ТУРК ХОҚОНЛИГИ ВА ВИЗАНТИЯ ЎРТАСИДАГИ ИЖТИМОЙ, ИҚТИСОДИЙ ВА СИЁСИЙ МУНОСАБАТЛАР	44
7. Нишанбаева Энахон Зарипбаевна ЎЗБЕКИСТОНДА МУСТАҚИЛЛИК ЙИЛЛАРИДА ХОТИН-ҚИЗЛАРНИНГ ҲУҚУҚЛАРИНИ ҲИМОЯ ҚИЛИШДА ИЖТИМОЙ ШЕРИКЛИК МУНОСАБАТЛАРИНИНГ ТАКОМИЛЛАШУВИ	54
8. Нормуродов Дилмурод Рахматуллаевич XV – XVI АСРНИНГ БОШЛАРИГА ОИД “ЯНГИ САНГАНАК” ХАЗИНАСИДАГИ БУХОРО ТАНГАЛАРИГА ДОИР	64
9. Toshxujayev Shoxrux Erkin o'g'li BOBURIYLAR SULOLASINING JAHONSIVILIZATSIYASIGA QO'SHGAN HISSASI	74
10. Usarov Umidjon Abdimavlyanovich ROSSIYA IMPERIYASINING TURKISTON O'LKADAGI YER-SUV MUNOSABATLARINING BOSHQARILISHIDA KADRLAR MASALASIGA OID SIYOSATI	80
11. Эшқурбонов Фазлиддин Нуралиевич., Аннаев Джалолиддин Тухташевич ТАРМИТА-ТЕРМИЗ БУДДАВИЙЛИК ЁДГОРЛИКЛАРИНИНГ ВАЗИФАЛАРИГА ДОИР	87
12. Шакиров Ильяс Рахимзянович ВОПРОСЫ ВНЕШНЕЭКОНОМИЧЕСКИХ СВЯЗЕЙ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН И КОРОЛЕВСТВА ТАИЛАНД (1991-2016)	101

Ergashev H.Y.

o'qituvchi

O'zbekiston Milliy universiteti

[husanergashev420.@gmail.com](mailto:husanergashev420@gmail.com)

MUSTAQILLIK YILLARIDA TARIX FANI VA TA'LIMINING RIVOJLANISHIDA O'ZMU TARIX FAKULTETINING O'RNI VA AHAMIYATI

ANNOTATSIYA

Ushbu maqola mustaqillikning ilk kunlarida tarix fanining rivoji uchun tashlangan dadil qadamlar, ularning keyingi yillardagi natijalariga bag'ishlanib, unda O'zMu tarix fakultetining roli qay darajda ekanligini ochib berishdan iborat.

Kalit so'zlar: Toshkent Davlat Dorilfuni, kulliyot, Madaniyat tarixi va nazariyasi, O'zbekiston xalqlari tarixi, Yangi va eng yangi tarix, Etnografiya, Qadimgi dunyo va o'rta asrlar tarixi.

Эргашев Х.Ю.

преподаватель

Национальный университет Узбекистана

[husanergashev420.@gmail.com](mailto:husanergashev420@gmail.com)

РОЛЬ ИСТОРИЧЕСКОГО ФАКУЛЬТЕТА НУУЗ В РАЗВИТИИ ИСТОРИЧЕСКОЙ НАУКИ И ОБРАЗОВАНИЯ В ГОДЫ НЕЗАВИСИМОСТИ

АННОТАЦИЯ

Данная статья посвящена изучению практических шагов, предпринятых для развития исторической науки в первые дни независимости, их результатам в последующие годы и раскрывает степень роли исторического факультета Национального университета в ней.

Ключевые слова: Ташкентский государственный Дорильфун, куллиот, кафедра истории и теории культуры, история народов Узбекистана, новая и новейшая история, этнография, история Древнего мира и средневековья.

Ergashev H.Y.

teacher

National University of Uzbekistan

husanergashev420@gmail.com

ROLE OF THE HISTORY FACULTY OF NUUZ IN THE DEVELOPMENT OF HISTORICAL SCIENCE AND EDUCATION DURING THE YEARS OF INDEPENDENCE

ABSTRACT

This article is about the bold steps taken for the development of historical science in the early days of independence, dedicated to their results in subsequent years, in which it is necessary to reveal at what level the role of the faculty of history is.

Key words: Tashkent State Dorilfuni, kulliyot, history and theory of Culture, history of the peoples of Uzbekistan, new and newest history, Ethnography, history of the ancient world and Middle Ages.

KIRISH

Tarix - millat ko'zgusi. Bu ko'zgu millatning o'tmishi va buguni qay holatda ekanligini belgilab berishda katta ahamiyatga ega. Sarhisob qilingan va xolisona yoritilgan tarix esa ushbu millatning porloq kelajagida beqiyos rol o'ynaydi. Har bir davlat tashkil topar ekan, uning bu paytga qadar tarixi ham mavjudligi barchamizga a'yon, zeroki, bu omil davlatning madaniy va ma'rifiy taraqqiyotida muhim ahamiyat kasb etadi. Davlatning mustaqilligini ta'minlashda ijtimoiy-iqtisodiy, harbiy-siyosiy sohalarda olib borilgan islohotlar muhim sanaladi. Bu sohalardagi islohotlarning amaliyotga tadbqiq etishda davlatning bugungi kuniga qadar mavjud imkoniyatlari va intellektual salohiyati katta ahamiyat kasb etadi. Chunki mustaqillik har bir xalqning eng muqaddas qadriyati sanaladi.

XX asrning so'ngi o'n yilligida dunyo siyosiy xaritasida ko'plab davlatlar tashkil topdi. Ularning keyingi taraqqiyoti esa turlicha kechdi, lekin aksariyatida o'zlarining haqqoniy tarixini tiklash borasida keng ko'lamli ishlar olib borildi. Xususan, O'zbekiston Respublikasida mustaqillikni qo'lga kiritishidan oldin ham bu borada salmoqli ishlar olib borilganligi hamda xolis tarixni tiklash uchun dadil qadamlar tashlanganligini ko'rish mumkin.

Mustaqil O'zbekiston davlati oldida turgan O'zbek xalqining kelib chiqish tarixi O'zbekiston tarixining ajralmas tarkibiy qismi, uning bosh masalasi ekanligi ta'kidlab o'tildi. O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti I.A. Karimov 1998-yilda bir guruh tarixchi olimlar bilan suhbat uyushtirib, ular oldiga "O'zbek xalqi va uning davlatchiligi" muammolari ustida ilmiy izlanishlar olib borish masalasini qo'ydi.

Birinchi Prezidentimiz I.A. Karimov aytganidek, “mustaqil fikrlaydigan odamlarimiz bo‘lmasa, o‘z davlatimiz, xalqimiz, mamlakatimiz tarixini o‘zimiz tiklamasak, o‘zimiz xolisona yozmasak, uni boshqalar boshqacha qilib yozadi. Yozish bilan cheklansa mayliku-ya, bizning o‘nib o‘sib kelayotgan avlodni, hatto olimlarimizni ham o‘z yo‘rig‘iga solishga harakat qiladi”[1].

Shu bilan birga O‘zbekistonning eng yangi tarixini ko‘lamli manzarisini yaratish zarurati, ozod bo‘lgan xalqning mustabid imperiyacha o‘tmishning boshi berk ko‘chalaridan chiqish, o‘zining bugungi kuni va kelajagini fidokorlik bilan barpo etish borasidagi novatorlik tajribasini ilmiy asosda bir tizimga solish va tahlil qilish hozirgi hozirgi davrning dolzarb talablaridan biri sifatida kun tartibiga qo‘yib borilgan.

TADQIQTONING ASOSIY NATIJALARI

Qayd etilgan masala har bir davlatning amalga oshirishi zarur bo‘lgan ustuvor vazifasi bo‘lib, mustaqillik arafasida unga jiddiy e‘tibor berilganligiga guvoh bo‘lishimiz mumkin, jumladan, O‘zbek tiliga davlat tili maqomining berilishi, O‘zbekiston SSR Prezidentlik lavozimining tashkil etilishi, O‘zbekiston SSR Mustaqillik Deklaratsiyasining qabul qilinishi va Mir Alisher Navoiyning 550 yillik tavalludining nishonlanishi kabi voqealar, o‘lkamizda istiqomat qilayotgan xalqning mustaqil fikrlay olishida o‘chmas iz qoldirdi. Bu esa mustaqillik yillarining ilk kunlaridanoq o‘z samarasini bermasdan qolmadi.

Bu vaqtda faoliyat ko‘rsatib kelayotgan Oliy ta‘lim muassasalari va ilmiy tadqiqot institutlarining ishlash mazmunida ham keng ko‘lamdagi islohotlar ro‘y berdi. Xususan, Toshkent Davlat Dorilfunining (hozirgi O‘zbekiston Milliy Univervsiteti) Tarix kulliyotida katta islohotlar boshlab yuborildi (Izoh: dorilfunun – universitet, kulliyot – fakultet ma‘sonisini anglatadi[2] keyingi o‘rinlarida ham dorilfunun va kulliyot shaklida keltiriladi, bu vaqtda respublikamizda o‘zbek tilining o‘rni va ahamiyatiga keng urg‘u berilgan bo‘lib, dargohninng nomi ushbu yillardagi arxiv hujjatlarida ham shunday qayd etilgan). Ma‘lumot o‘rnida qayd etish lozimki, kulliyot tarkibida bu paytgacha mavjud bo‘lgan SSSR tarixi nomli kafedra faoliyati tugatilib, uning a‘zolari boshqa kafedralarga birlashtirildi. Yuqorida qayd etilganidek, mustaqillik arafasidagi tub burilishni yasab bergan voqaealar o‘zining ijobiy natijasini ko‘rsatdi. Tosh DD Tarix kulliyotida O‘zbekiston SSR Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligining 1991-yilning 23-yanvardagi 42-sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan ToshDD rektorining 01-59 sonli buyrug‘i bilan “Madaniyat tarixi va nazariyasi” kafedra tashkil etildi. Ushbu kafedrani tashkil etishdan asosiy maqsad: O‘rta Osiyo xalqlarining madaniyatini o‘rganish, qadimgi davrdan bugungi kun (1991-yil)ga qadar kishilik madaniyatining o‘zaro aloqalarini o‘rganish orqali talabalarning bu boradagi bilimlarini yanada boyitishni o‘z oldiga maqsad qilib olgan edi[3]. Qayd etish joizki, bu vaqtda o‘lkamizda tarix fanini rivojlantirish va targ‘ib qilish borasida yetarlicha imkoniyatga ega bo‘lgan ToshDD Tarix kulliyotida 7 kafedra faoliyat ko‘rsatgan

bo'lib, ularning barchasi davrning dozarb mavzulari ustida ilmiy tadqiqotlar olib borishi va shu bilan bir qatorda tarkibida yuqori salohiyatga professor-o'qituvchilarni o'zida jamlaganligi dargohning nufuzini belgilab beradi. Xususan, O'zbekiston xalqlari tarixi, Yangi va eng yangi tarix, Etnografiya, Qadimgi dunyo va o'rta asrlar tarixi, Siyosiy partiyalar tarixi, Arxeologiya, Madaniyat tarixi va nazariyasi, Yevroosiyo xalqlari tarixi nomli kafedralar faoliyat ko'rsatgan[4]. Nomlari sanab o'tilgan kafedralarning har biri o'z ilmiy tadqiqot mavzusiga ega bo'lib, har o'quv yili davomida izlanishlar olib borilar va o'quv yilining yakunida sarhisob qilib, keyingi o'quv yili uchun dolzarb mavzu belgilab olinganini ko'rish mumkin. Ushbu kafedralarda tarix fanining har bir davriga oid kuchli mutaxasislari faoliyat ko'rsatgan bo'lib, bu esa fakultetning respublikamizda yetakchi ilmiy tadqiqot va ta'lim dargohi ekanligidan dalolat beradi. Fakultetda mustaqillikning dastlabki yillarida mehnat qilgan professor-o'qituvchilarning ism shariflarini keltirib o'tish joizdir, chunki, ushbu maqolada ularning nomlari qayd etilishi orqali ularga bo'lgan hurmat hamda bu vaqtda mehnat qilgan olimlarning ism shariflari deyarli hech qayerda tilga olinmaganligi hamda ularning mehnat mahsuli hisoblangan o'quv-uslubiy va ilmiy tadqiqot ishlari ham keyingi yillarda muhim rol o'ynadi. Ular quyidagicha:

O'zbekiston xalqlari kafedrası: mudir, dots. X.G'. G'ulomov, L.M. Mazayeva., N.X Usmonova, G.G. Xolliyev, Z.U. Choriyev, E.T. Ro'ziyeva, E.P Zasteba, Sh.R. Pidayev, U. Raxmonov, o'qit. Z.M. Mustafayev, K. Ismoilov, A.S. Tatibayev, A.M. Hidirov, katta laborant A. Xolov, prof. R.G. Mukminova (tashqi o'rindosh)[5],

Yangi va eng yangi tarix kafedrası: mudir prof. G.A. Hidoyatov, dots. R.M. Emchenko, M.Sh. Shapsan, V.I. Gulin, katta o'qituvchi A.D. Abdurahimov, O.P. Nadtochniy, R.T. Sarimsakov, o'qituvchi Y.K. Madyarov, S.I. Gabrielyan, Sh. Xolikov[6],

Etnografiya, Qadimgi dunyo va O'rta asrlar tarixi kafedrası: mudir prof. I.M. Jabborov, A.S. Sagdullayev, T.K. Xodjayov, dots. G.B. Nikolskaya, Z.X. Lutfullayeva, S.I. Algiyeva, dots. A.A. Xashimov, katta o'qituvchi Sh.I. Isamiddinova, o'qituvchi A.X. Daniyarov, N.D. Kindalova, B.B. Aminov, katta laborant L.B. Umarova, laborant S.K. Shayxova[7],

Arxeologiya kafedrası: mudir: dots. Z.I. Usmonova, prof. S.B. Lunina, dots. G.Y. Dresvyanskaya, N.P. Stolyarova, o'qit. O'.M. Mavlonov, katta laborant A.E. Groshev, T.B. Belyayeva, laborant. L.Z. Shakurova, saotbay: prof. E.V. Rtvladze, Y.F. Buryakov[8],

Yevroosiyo xalqlari tarixi kafedrası: mudir: dots. N.A. Abdurahimova, I.A. Kurbatova, M.M. Babajanova, A.N. Nuritov, Y.K. Kadirova, T.K. Utepov, G.B. Machin, kat.o'qit. S.F. Atabekova, o'qituvchi. S.K. Kojevnikova[9] kabilar mehnat qilishgan.

Tarix fani xalqning ma'naviyatini shakllantirishda beqiyos ahamiyat kasb etishini inobatga olsak, uning har tomonlama targ'ib qilish ham bu vaqtning muhim vazifalaridan bir bo'lib turardi. Mustaqillik e'lon qilinib, bayram sifatida nishonlanish boshlanishi bilan ushbu dargohda yangi kafedra ya'ni "Tarixni o'qitish uslubi" nomli kafedrasini o'z faoliyatini boshladi. Tarix ta'limini rivojlantirish va uning respublika taraqqiyotiga munosib hissa qo'shish, umumta'lim maktablarida tarix fanini o'qitish borasida metodika va tizimli dasturlar orqali yoshlarni vatanparvar ruhda tarbiyalash maqsadida tashkil etilgan ushbu kafedra o'z tarkibiga 1 ta fan doktori, 3 nomzod, 4 nafar o'qituvchilar (ular: t.f.d., prof. R.G.Mukminova, t.f.n., dots. T.U. Salimov, A.K. Kabirov, Y.X. G'afforov, o'qit. E. Qo'chqorov, kat.o'qit. A.Y. Ten, o'qit. O. Lupshenko, O. Tojiyev) bilan o'z faoliyatini boshlaydi[10]. Qayd etilganidek umumta'lim maktablarida o'quvchilarning tarix fanini puxta o'zlashtirishlari uchun kafedra tashkil etilgan yiliyoq jiddiy va keng ko'lamdagi ishlarni olib bordi, jumladan, 1991-1992 o'quv yilidan boshlab ixtisoslashtirish yo'lga qo'yildi. 1991 – yilning sentabr oyidan boshlab III bosqich talabalaridan 20 kishi maxsus kurslar eshitib, umumta'lim maktablarida o'qituvchi bo'lishlariga tayyorlana boshlandi[11]. Tarix ta'limi – sifatli o'qitish va yuqori salohiyatli ilmiy tadqiqotlar bilan o'z ahamiyatini belgilab beradi. Yuqorida qayd etilgan kafedra o'z faoliyatida talabalarning kelajakda sohaning mutaxasisi bo'lishi bilan bir qatorda mohir pedagog bo'lishlariga ham katta e'tibor qaratdi. Buni quyida tashkil etilgan fanlar orqali ham ko'rish mumkin:

Kafedradagi maxsus kurslar va ularni olib boradigan professor - o'qituvchilar ro'yxati:

1. Etnografiya ekspeditsiyalarini o'tkazish uslublari – III kurs: Salimov T.U.
2. Maktab tarix ta'limi va o'lkashunoslik – III kurs: Kabirov A.K.
3. Maktablarda O'zbekiston xalqlari tarixni o'qitish, yozma tarixiy manbalardan foydalanish – III kurs: G'afforov Y.
4. Maktab tarix ta'limini o'qitishda etnografiya va etnotoponimiyaning roli: IV kurs: Salimov T.
5. O'zbekiston xalqlari tarixni o'qitishda Arxeologiya va Antropologiya ning roli – IV kurs: Kabirov A.
6. Umumta'lim maktablarida O'zbekiston xalqlari tarixini o'qitish usullari – IV kurs: G'afforov Y.
7. Maktab tarix ta'limida ko'rgazmalarining roli va uni tayyorlash – IV kurs: Qo'chqorov E.
8. Maktab tarix xonalari tashkil qilish va jihozlash – IV kurs: Tojiyev O[12].

Yurtimizda oliy ta'limni isloh qilish keyingi yillarda ham davom ettirilib borildi, bu esa mamlakatning kelajagi uchun muhimdir. Xususan, 1992-yilning 1-sentabrda "O'rta Osiyo manbashunoslik, arxivshunoslik va muzeyshunoslik" deb nomlangan yangi kafedra tashkil etildi. Tashkil etilgan vaqtda dotsent F.R. Irgashev mudirlik

qilgan lekin uning o'zi rektorga murojaat qilib, bu lavozimga dotsent O.O. Toshmuhammedov nomzodini taklif qilgan, so'ngra ushbu nomzod rektorga ham ma'qul bo'ldi[13].

1992-yilning 16-noyabr kuni bo'lib o'tgan kafedra majlsida so'zga chiqqan O.O. Toshmuhammedov quyidagilarni ta'kidlab o'tdi: "Ushbu kafedra Tarix fakultetida tashkil etish uchun oldindan harakat qilib kelardik. Mana nihoyat, ezgu maqsadlar amalga oshdi. ToshDU Tarix kulliyotida "Manbashunoslik, Arxivshunoslik va Muzeysunoslik" kafedrasini ish boshladi. Kafedramiz hali aytish mumkinki, Respublikamizda va hatto mintaqadagi shu turdagi dastlabki kafedra hisoblanadi. Mustaqillik sharofati bilan tarix fanining rivojida yangi bosqich boshlandi. Hozirgi kunda tarixni yoritishda partiyaviy, sinfiy yondashuvdan voz kechilmoqda. Oldimizda milliy tarix fanini yaratish bosh muammo bo'lib turubdi. Milliy tarix fanini yaratishda manbashunoslik fani katta o'rin tutadi. Ilgari O'rta Osiyo tarixi manbashunosligi nomi ostida asosan Rossiya tarixiga oid manbalar o'rganilar edi, o'lkamizning o'rta asrlar tarixiga oid 20 mingdan ortiq asar hali umuman o'rganilgan emas"[14] deya o'z fikrlarini bildirib o'tdi.

XULOSA

Yuqorida qayd etilgan bu ishlar tarix fanining rivojlantirish va kelajakda ma'naviyatli, vatanparvar va fidoiy avlodni tarbiyalashda nihoyatda muhim ahamiyat kasb etadi. Respublikamizda tayanch hisoblangan ushbu dargoh istiqlol yillarda ko'plab tarixchi mutaxassislarini tarbiyalab berdi. Urg'u berib o'tilgan yillarda tahsil olib, bugungi kunga qadar ko'plab shogirdlarga tahsil berib kelayotgan professor-o'qituvchilar tarix fanlari doktori, professori kabi ilmiy daraja va unvonlariga sazovor bo'lganlari ham fakultetning keyingi davrdagi faoliyatida o'z samarasini bermasdan qolmadi.

IQTIBOSLAR / ЧОСКИ / REFERENCES

1. A. Asqarov. O'zbek xalqining kelib chiqishi tarixi. Toshkent "O'zbekiston". 2019. 3-B.
2. Toshkent shahar Markaziy Davlat Arxivi. 38-fond, 2-ro'yxat, 1065-yig'ma jild, 4-varaq.
3. Toshkent shahar Markaziy Davlat Arxivi. 38-fond, 2-ro'yxat, 769-yig'ma jild, 1-varaq.
4. Toshkent shahar Markaziy Davlat Arxivi. 38-fond, 2-ro'yxat, 761-yig'ma jild, 1-varaq.
5. Toshkent shahar Markaziy Davlat Arxivi. 38-fond, 2-ro'yxat, 1065-yig'ma jild, 4-varaq.
6. Toshkent shahar Markaziy Davlat Arxivi. 38-fond, 2-ro'yxat, 762-yig'ma jild, 1-varaq.
7. Toshkent shahar Markaziy Davlat Arxivi. 38-fond, 2-ro'yxat, 766-yig'ma

jild, 2-varaq.

8. Toshkent shahar Markaziy Davlat Arxivi. 38-fond, 2-ro'yxat, 767-yig'ma jild, 1-varaq.

9. Toshkent shahar Markaziy Davlat Arxivi. 38-fond, 2-ro'yxat, 764-yig'ma jild, 4-varaq.

10. Toshkent shahar Markaziy Davlat Arxivi. 38-fond, 2-ro'yxat, 1060-yig'ma jild, 1 - 2 - varaq.

11. Toshkent shahar Markaziy Davlat Arxivi. 38-fond, 2-ro'yxat, 1060-yig'ma jild, 4 - varaq.

12. Toshkent shahar Markaziy Davlat Arxivi. 38-fond, 2-ro'yxat, 1060-yig'ma jild, 3 - varaq.

13. Toshkent shahar Markaziy Davlat Arxivi. 38-fond, 2-ro'yxat, 1064-yig'ma jild, 8 - varaq.

14. Toshkent shahar Markaziy Davlat Arxivi. 38-fond, 2-ro'yxat, 1064-yig'ma jild, 10 - 11 - varaq.